



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 10 - mart

VI-59-57-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumanida Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiya rais o'rinbosarining tashabbusli budget jarayonlari bo'yicha 2022-yil 1-2-mavsum natijalari axboroti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV sonli qaroriga asosan Angor tumanida 2021-2022-yillarda tashabbusli budget tadbirlari uchun jami 14 696,3 mln.so'm, shundan mahalliy budget parametridan 6 202,4 mln.so'm, Respublika budgetidan 5 354,9 mln.so'm, tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalari hisobidan 3 139,0 mln.so'm mablag'lar ajratilgan. 2021-yil tashabbusli budget tadbirlar uchun jami 1 223,0 mln.so'm, 2022-yil tashabbusli budget 1-mavsum tadbirlar uchun mahalliy budgetdan 3 101,2 mln.so'm, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi PQ-197-sonli qaroriga asosan ikki mingdan ko'p ovoz olgan 3 ta tashabbusga Respublika budgetidan 936,0 mln.so'm, tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalari hisobidan 1 101,7 mln.so'm jami 5 138,6 mln.so'm mablag' ajratilgan. 2022-yil tashabbusli budget 2-mavsum tadbirlar uchun mahalliy budgetdan 3 101,2 mln.so'm, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-sonli qaroriga asosan ikki mingdan ko'p ovoz olgan 6 ta tashabbusga Respublika budgetidan 4 419,0 mln.so'm, tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalari hisobidan 761,8 mln.so'm jami 8 282,0 mln.so'm mablag' ajratilgan.

Angor tumani bo'yicha 2022-yil tashabbusli budget loyihasi 1-mavsum 2022-yil 1-fevraldan 22-fevral sanasigacha takliflar qabul qilingan. Ushbu davrda Angor tumani bo'yicha jami 344 ta taklif bildirilgan. 2022-yil 23-fevraldan 4-mart sanasigacha Moderatsiya jarayonlari ya'ni kiritilgan takliflar tuman ishchi guruhi tomonidan o'rganilib takliflar tanlab olingan. 2022-yil 5-martdan 1-aprel sanasigacha ovoz berish jarayonlari o'tkazilib, ushbu takliflardan eng yuqori ovoz olgan 11 ta loyiha g'olib deb

topilgan. Jumladan:

- 1-gʻolib Angor tumanida joylashgan tumandagi 13-maktab binosini taʼmirlash tashabbusi 400,0 mln.soʻm 4065 ta ovoz bilan gʻolib boʻldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi Angor tuman Xalq taʼlimi boʻlimiga 400,0 mln. soʻm mablagʻ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq taʼminotchi “Shoxida quruvchi” xususiy korxonasi aniqlanib loyiha-smeta hujjatlariga asosan qurilish taʼmirlash ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda qurilish-taʼmirlash yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga oʻtkazilgan;

- 2-gʻolib Angor tuman “Navshahar” MFY maʼmuriy binosini kapital tamirlash tashabbusi 250,0 mln.soʻm 3293 ta ovoz bilan gʻolib boʻldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman mahalla va nuroniylarni qoʻllab-quvvatlash boʻlimiga 250,0 mln.soʻm mablagʻ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq taʼminotchi “Angor Doʻstlik” xususiy korxonasi aniqlanib, loyiha-smeta hujjatlariga asosan qurilish taʼmirlash ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda qurilish-taʼmirlash yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga oʻtkazilgan;

- 3-gʻolib Angor tuman Navshahar oilaviy poliklinikasini kapital taʼmirlash tashabbusi 950,0 mln.soʻm 3010 ta ovoz bilan gʻolib boʻldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Tibbiyot birlashmasiga 950,0 mln.soʻm mablagʻ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq taʼminotchi “Navshahar Stroy” xususiy korxonasi aniqlanib loyiha-smeta hujjatlariga asosan qurilish taʼmirlash ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda qurilish-taʼmirlash yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga oʻtkazilgan;

- 4-gʻolib Angor tuman “Dehqonbirlashuv” MFY hududida joylashgan “Kesak ota” qabristoni beton devor bilan oʻrash tashabbusi 600,0 mln.soʻm 2806 ta ovoz bilan gʻolib boʻldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga 600,0 mln.soʻm mablagʻ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq taʼminotchi “Mirabbos-Yangiobod” xususiy korxonasi aniqlanib loyiha-smeta hujjatlariga asosan toʻsiq devor bilan oʻrash ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda qurilish-taʼmirlash yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga oʻtkazilgan;

- 5-gʻolib tuman hududida yaʼni “Yuqori Tallimaron” va boshqa hududlarga tungi yoritgichlar oʻrnatish tashabbusi 360,0 mln.soʻm 2725 ta ovoz bilan gʻolib boʻldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga 360,0 mln.soʻm mablagʻ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq taʼminotchi “MIRABBOS-YANGIOBOD” xususiy korxonasi aniqlanib loyiha-smeta hujjatlariga asosan tungi yoritgich chiroqlari oʻrnatish ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda tungi chiroq oʻrnatish ishlari yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga oʻtkazilgan;

- 6-gʻolib tumandagi 3-sonli ixtisoslashgan davlat umumtaʼlim maktabi faollar

zalini yangi jihozlar bilan jihozlash tashabbusi 450,0 mln.so‘m 2725 ta ovoz bilan g‘olib bo‘ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga 450,0 mln.so‘m mablag‘ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta‘minotchi “Shoxida quruvchi” xususiy korxonasi aniqlanib loyiha-smeta hujjatlariga asosan maktabning faollar zali jihozlanib, zalning ichki qismida qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda ishlar yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga o‘tkazilgan;

- 7-g‘olib Angor tuman “Dehqonbirlashuv” mahallasidagi Markaz ko‘chasini asfalt qilish tashabbusi 500,0 mln.so‘m 2699 ta ovoz bilan g‘olib bo‘ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga 500,0 mln.so‘m mablag‘ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta‘minotchi “Sarman bobo o‘g‘li Xudoyberdi” MChJ aniqlanib smeta-loyiha hujjatlariga asosan mahallaning Markaz ko‘chasini 1000 metr qismi to‘liq asfalt qilindi. Hozirgi kunda ishlar yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga o‘tkazilgan;

- 8-g‘olib Angor tumandagi 15-sonli IDUM maktabni qo‘shimcha binosini kapital ta‘mirlash tashabbusi 700,0 mln.so‘m 2699 ta ovoz bilan g‘olib bo‘ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Xalq ta‘limi bo‘limiga 750,0 mln.so‘m mablag‘ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta‘minotchi “Sarman bobo o‘g‘li Xudoyberdi” MChJ aniqlanib smeta-loyiha hujjatlariga asosan maktabning qo‘shimcha binosini kapital ta‘mirlash ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda qurilish-ta‘mirlash yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga o‘tkazilgan;

- 9-g‘olib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi PQ-197-son qarori bilan 2000 dan ortiq ovoz yig‘ilganligi sababli g‘olib deb topilib, manzilli ro‘yxatga qo‘shimcha kiritilgan bo‘lib tumandagi 9-sonli IDUM maktabni joriy ta‘mirlash tashabbusi 399,2 mln.so‘m 2697 ta ovoz bilan g‘olib bo‘ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Xalq ta‘limi bo‘limiga 399,2 mln.so‘m mablag‘ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta‘minotchi “Shoxida quruvchi” xususiy korxonasi aniqlanib smeta-loyiha hujjatlariga qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda qurilish-ta‘mirlash yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga o‘tkazilgan;

- 10-g‘olib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi PQ-197-son qarori bilan 2000 dan ortiq ovoz yig‘ilganligi sababli g‘olib deb topilib, manzilli ro‘yxatga qo‘shimcha kiritilgan bo‘lib tumandagi 26-sonli maktabni joriy ta‘mirlash tashabbusi 239,0 mln.so‘m 2235 ta ovoz bilan g‘olib bo‘ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Xalq ta‘limi bo‘limiga 239,0 mln.so‘m mablag‘ ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta‘minotchi “MIRABBOS-YANGIOBOD” xususiy korxonasi aniqlanib smeta-loyiha hujjatlariga qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda qurilish-ta‘mirlash yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga o‘tkazilgan;

- 11-g'olib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi PQ-197-son qarori bilan 2000 dan ortiq ovoz yig'ilganligi sababli g'olib deb topilib, manzilli ro'yxatga qo'shimcha kiritilgan bo'lib Angor tuman Navshahar MFY ma'muriy binosini joriy ta'mirlash tashabbusi 297,7 mln.so'm 2009 ta ovoz bilan g'olib bo'ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limiga 297,7 mln.so'm mablag' ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta'minotchi "Shoxida quruvchi" xususiy korxonasi aniqlanib, smeta-loyiha hujjatlariga asosan qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilgan. Hozirgi kunda mahalla fuqarolar yig'ini binosi qurilish ishlari yakunlanib buyurtmachi tomonidan loyiha jamoatchilik nazoratidan yashil ranga o'tkazilgan.

2022-yilning 1-bosqichida g'olib loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 5 145,9 mln. so'm mablag' ajratilgan. Hozirgi kunda 11 ta loyiha to'liq qurilish montaj ishlari yakunlangan bo'lib, buyurtmachi tashkilotlar tomonidan qabul qilib olinib, Openbudget.uz portalida jamoatchilik nazoratidan yashil rangga o'tkazilgan.

Angor tumanida tashabbusli budget tadbirlarining 2022-yil 2-mavsumi uchun 2022-yil 15-iyuldan 3-avgust sanasigacha takliflar qabul qilindi. Ushbu davrda Angor tumani bo'yicha jami 660 ta taklif bildirildi. 2022-yil 4-avgustdan 23-avgust sanasigacha Moderatsiya jarayonlari ya'ni kiritilgan takliflar tuman ishchi guruhi tomonidan o'rganilib 196 taklif tanlab olindi. 2022-yil 24-avgustdan 17-sentabr sanasigacha ovoz berish jarayonlari o'tkazilib quyidagi takliflar g'olib deb topildi. Jumladan:

- 3-g'olib Angor tuman "Ulug'bek" mahallasidagi 2300 metr bo'lgan Bedak va Zarbdor ko'chalarni asfalt qilish tashabbusi 1150,0 mln.so'm 4072 ta ovoz bilan g'olib bo'ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga 1150,0 mln.so'm mablag' ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta'minotchi "TEXTA'MIR TA'MINOT" MChJ bilan 1100,5 mln.so'mga shartnoma tuzilgan bo'lib, Moliyalashtirish amalda 881,7 mln.so'mni, smeta-loyiha hujjatlariga bajarilgan ish hajmi 705,4 mln.so'mni yoki 64 foizni tashkil qilib turibdi. Loyiha jamoatchilik nazoratidan sariq ranga o'tkazilgan;

- 4-g'olib tumandagi 23-sonli umumta'lim maktab binosini joriy ta'mirlash tashabbusi 800,0 mln.so'm 3988 ta ovoz bilan g'olib bo'ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Xalq ta'limi bo'limiga 800,0 mln.so'm mablag' ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta'minotchi "IBROXIM BARPO" MChJ bilan 792,5 mln.so'mga shartnoma tuzilgan bo'lib, moliyalashtirish amalda 751,0 mln.so'mni, smeta-loyiha hujjatlariga bajarilgan ish hajmi 600,8 mln.so'mni yoki 76 foizni tashkil qilib turibdi. Loyiha jamoatchilik nazoratidan sariq ranga o'tkazilgan;

- 5-g'olib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qarori bilan 2000 dan ortiq ovoz yig'ilganligi sababli g'olib deb topilib, manzilli ro'yxatga qo'shimcha kiritilgan bo'lib, Angor tumandagi Sharq Guli, Yuqori Tallashqon, Zang Gilambob, Zartepa, Yangiobod, Yuqori Xo'jaqiya, Navbahor,

Madaniyat, Ilg'or, Bahor, Oxunboboyev, Qo'shtegirmon, Farovon, Kattaqum mahallalar binolarini joriy ta'mirlash tashabbusi 700,0 mln.so'm 3970 ta ovoz bilan g'olib bo'ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limiga 700,0 mln.so'm mablag' ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta'minotchi "Angor Do'stlik" xususiy korxonasi bilan 697,0 mln.so'mga shartnoma tuzilgan bo'lib, moliyalashtirish amalda 385,3 mln.so'mni, smeta-loyiha hujjatlariga bajarilgan ish hajmi 346,8 mln.so'mni yoki 50 foizni tashkil qilib turibdi. Loyiha jamoatchilik nazoratidan sariq ranga o'tkazilgan;

- 6-g'olib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qarori bilan 2000 dan ortiq ovoz yig'ilganligi sababli g'olib deb topilib, manzilli ro'yxatga qo'shimcha kiritilgan bo'lib, Angor tuman Dehqonbirlashuv mahallasida qurilgan yangi (senvich panel)li bog'cha hududini to'siq devor bilan o'rash, bolalar o'yingohi qurish, transformator o'rnatish, ichimlik suv bilan ta'minlash tashabbusi 680,0 mln.so'm 3814 ta ovoz bilan g'olib bo'ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Maktabgacha ta'lim bo'limiga 680,0 mln.so'm mablag' ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta'minotchi "Navshahar Stroy" MChJ bilan 672,5 mln.so'mga shartnoma tuzilgan bo'lib, moliyalashtirish amalda 644,9 mln.so'mni, smeta-loyiha hujjatlariga bajarilgan ish hajmi 515,9 mln.so'mni yoki 77 foizni tashkil qilib turibdi. Loyiha jamoatchilik nazoratidan sariq ranga o'tkazilgan;

- 7-g'olib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qarori bilan 2000 dan ortiq ovoz yig'ilganligi sababli g'olib deb topilib, manzilli ro'yxatga qo'shimcha kiritilgan bo'lib, tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli 2-sonli oilaviy poliklinikani kapital qayta ta'mirlash tashabbusi 1 200,0 mln.so'm 3670 ta ovoz bilan g'olib bo'ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Tibbiyot birlashmasiga 1200,0 mln.so'm mablag' ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta'minotchi "Shoxida quruvchi" MChJ bilan 1 183,0 mln.so'mga shartnoma tuzilgan bo'lib, moliyalashtirish amalda 649,4 mln.so'mni, smeta-loyiha hujjatlariga bajarilgan ish hajmi 487,1 mln.so'mni yoki 41 foizni tashkil qilib turibdi. Loyiha jamoatchilik nazoratidan sariq ranga o'tkazilgan;

- 8-g'olib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qarori bilan 2000 dan ortiq ovoz yig'ilganligi sababli g'olib deb topilib, manzilli ro'yxatga qo'shimcha kiritilgan bo'lib, Angor tumanidagi 6-sonli umumta'lim maktabidagi joriy ta'mirlash tashabbusi 909,0 mln.so'm 2242 ta ovoz bilan g'olib bo'ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Xalq ta'limi bo'limiga 909,0 mln.so'm mablag' ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta'minotchi "Sarman bobo o'g'li Xudoyberdi" MChJ bilan 904,0 mln.so'mga shartnoma tuzilgan bo'lib, moliyalashtirish amalda 862,1 mln.so'mni, smeta-loyixa xujjatlariga bajarilgan ish hajmi 689,7 mln.so'mni yoki 76 foizni tashkil qilib turibdi. Loyiha jamoatchilik nazoratidan sariq ranga o'tkazilgan;

- 9-g'olib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qarori bilan 2000 dan ortiq ovoz yig'ilganligi sababli g'olib deb topilib,

manzilli ro'yxatga qo'shimcha kiritilgan bo'lib, tuman tibbiyot birlamasi hududida piyodalar yo'lagi qurish, tungi ko'cha chiroqlari va avtoturargoh qurish tashabbusi 400,0 mln.so'm 2140 ta ovoz bilan g'olib bo'ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Tibbiyot birlashmasiga 400,0 mln.so'm mablag' ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta'minotchi "Temir buyumlari" MChJ bilan 394,2 mln.so'mga shartnoma tuzilgan bo'lib, moliyalashtirish amalda 322,6 mln.so'mni, smeta-loyiha hujjatlariga bajarilgan ish hajmi 306,5 mln.so'mni yoki 78 foizni tashkil qilib turibdi. Loyiha jamoatchilik nazoratidan sariq ranga o'tkazilgan;

- 10-g'olib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qarori bilan 2000 dan ortiq ovoz yig'ilganligi sababli g'olib deb topilib, manzilli ro'yxatga qo'shimcha kiritilgan bo'lib, tumandagi 27-sonli umumta'lim maktabining sport zal qurilish ishlarini davom ettirish va yakunlash tashabbusi 530,0 mln.so'm 2026 ta ovoz bilan g'olib bo'ldi. Loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi tuman Xalq ta'limi bo'limiga 530,0 mln.so'm mablag' ajratildi. Davlat xaridlariga muvofiq ta'minotchi "BREND-QURUVCHI" xususiy korxonasi bilan 528,2 mln.so'mga shartnoma tuzilgan bo'lib, moliyalashtirish amalda 381,5 mln.so'mni, smeta-loyiha hujjatlariga bajarilgan ish hajmi 324,0 mln.so'mni yoki 61 foizni tashkil qilib turibdi. Loyiha jamoatchilik nazoratidan sariq ranga o'tkazilgan.

Shuningdek, Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori bilan tasdiqlangan manzilli ro'yxatga tegishli o'zgartirish kiritilib, 2-bosqichda g'olib deb topilgan 1-g'olib, Angor tuman "Dehqonbirlashuv" mahallasi hududida piyodalar yo'lakchasi va devor qurish ishlari tashabbusi va 2-g'olib, tuman "Madaniyat" mahallasi hududida piyodalar yo'lakchasi qurish ishlari tashabbusi manzilli ro'yxatdan Kengash qarori bilan chiqarilgan.

Kun tartibidagi masala yuzasidan jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiya raisi, tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Muratovning axborotini tinglab, bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumanida tashabbusli budjet jarayonlari bo'yicha 2022-yil 1-2-mavsum natijalari to'g'risida Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiya raisi o'rinbosari O.Muratovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Muratov), tuman hokimligining Moliya bo'limi (S.Kuchkarov) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin;

- 2022-yil ikkinchi mavsumida g‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish;
- har chorak yakuni bilan hosil bo‘ladigan mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan kamida 30,0 foizini “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirish;
- 2023-yil birinchi mavsum tashabbusli budjet jarayonlariga har bir mahalla aholisini keng jalb qilish orqali “mahallabay” asosda ishlarni tashkil qilish;
- g‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirish sifatini va to‘liqligini nazorat qilish choralarini ko‘rsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiya raislari, tegishli hudud deputatlari bilan birgalikda:

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishi va amalga oshirilishini nazorat qilib borish;
- belgilangan muddatlarda bajarilmagan yoki bajarilishi kechiktirilayotgan tadbirlar bo‘yicha mas‘ul rahbarlarning axborotlarini sessiyalarda eshitib borish bo‘yicha takliflar kiritish tavsiya etilsin.

4. Tuman hokimligining moliya bo‘limi (S.Kuchkarov) amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha **har chorak yakuni** bilan xalq deputatlari Angor tumani Kengashiga axborot taqdim etib borsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva) jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalar va amalga oshirilayotgan tadbirlarni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti, ommaviy axborot vositalaridagi rasmiy sahifasi va tuman gazetasida yoritilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov